

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

G'ARAZ YOKI PAST NIYATLARDA SODIR ETILADIGAN  
JINOYATLARNING JINOYATNI KVALIFIKATSIYA QILISHGA  
TA'SIRI.

MAMURJONOV SHAHBOZ MANSUR O'G'LI

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti" soha mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda jinoyatni kvalifikatsiya qilish tushunchasi, g'araz yoki past niyatlar motivi bilan sodir etilgan jinoyatlarning tavsifi va ularning jinoyatlarni kvalifikatsiyasiga ta'siri bayon etilgan.

Shu bilan birgalikda milliy qonunchiligimizda ushbu turdagi motivlarning jinoyatlarning kvalifikatsiyasidagi ahamiyati borasida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** jnoyatlarni kvalifikatsiyasi, g'araz niyat, past niyatda jinoyatni sodir etish.

**Аннотация:** В данной тезис описывается понятие классификации преступлений, описание преступлений, совершенных со злым умыслом или низкими намерениями, и их влияние на классификацию преступлений.

В то же время наше национальное законодательство дает информацию о значении этих видов мотивов при квалификации преступлений.

**Ключевые слова:** квалификация преступлений, злой умысел, совершение преступления с низшим умыслом.

**Abstract:** This thesis describes the concept of crime classification, the description of crimes committed with malice or low motives and their influence on crime classification.

At the same time, our national legislation provides information on the importance of these types of motives in the qualification of crimes.

**Key words:** qualification of crimes, malicious intent, committing a crime with low intent.

Jinoyat huquqi tizimidagi jinoyatlarning kvalifikatsiyasi - bu sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik belgisini tashkil etuvchi belgilari bilan jinoyat belgilari o'rtasidagi bog'liqlikni solishtirish va baholashdan iborat bo'lgan jinoyat qonunchiligidagi muhim jarayondir. Shundan kelib chiqib, jinoyat huquqi normasida nazarda tutilgan jinoiy qilmish belgilari bilan jinoyatning haqiqiy belgilarining mos kelishi haqida xulosa chiqariladi.

Jinoyat huquqi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning huquqiy asosini, ya'ni jinoyat tarkibini jinoiy javobgarlik uchun yetarli va zaruriy asos sifatida ifodalaydi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

Jinoyat tarkibining aksariyat qismi mamlakatimiz Jinoyat kodeksining Maxsus qismining tegishli moddalarida, qolganlari ushbu kodeksning Umumiy qismining moddalarida ko'rsatilgan.

Shuningdek, kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibi muhim element hisoblanadi. Asosan jinoyatlarni malakalash shunga qarab amalga oshiriladi. M.H.Rustambayev jinoyat tarkibi bo'yicha "Jinoyat tarkibi – jinoiy javobgarlikning asosi bo'la turib, istalgan jinoyatni kvalifikatsiya qilishning muhim sharti – yuridik asosi bo'lib xizmat qiladi" degan qarashni ilgari suradi<sup>1</sup>.

N.F.Kuznetsova keltirgan talqin bo'yicha jinoyatni kvalifikatsiya qilish – Jinoyat kodeksi Umumiy va Maxsus qismlarining muayyan normasida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishning belgilarini sodir etilgan jinoyat tarkibi belgilariga solishtirib, ularning mosligini aniqlashdir. Bizning fikrimizcha jinoyatni kvalifikatsiya qilish sodir etilgan qilmishni Jinoyat kodeksining Maxsus qismida keltirilgan moddalarga mos kelishini aniqlashdan iboratdir.

Ba'zi bir olimlar jinoyatni kvalifikatsiya qilishda qilmishni kvalifikatsiya qilishni tafakkur bilan bog'liq bo'lgan mantiqiy jarayon sifatida e'tirof etishadi<sup>2</sup>.

Jinoyat uchun javobgarlikni yegillashtiruvchi holatlar mavjud bo'lganidek, og'irlashtiruvchi holatlar ham mavjud. Biz tahlil qilayotgan g'arazli yoki past niyatlarda jinoyat sodir etish motivi og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanadi.

G'arazli yoki past niyatda sodir etilgan jinoyatlarning jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'siri shundan iboratki, ular jinoyatchining aybdorlik darajasini aniqlashda va tegishli jazo tayinlashda hisobga olinishi mumkin.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra Respublika kesimida g'arazli yoki past niyatlarda sodir etilgan jinoyatlar ko'plab keltirilgan. Misol uchun, 2019–2021-yillarda JKning 125-moddasi ikkinchi qismi "b" bandi bilan jami 3 ta, JKning 131-moddasi birinchi qismi bilan jami 459 ta, JKning 137-moddasi ikkinchi qismi "b" bandi bilan 57 ta, JKning 139-moddasi uchinchi qismi "g" bandi bilan 140 ta, JKning 141<sup>1</sup>-moddasi ikkinchi qismi "b" bandi bilan 26 ta, JKning 1412-moddasi ikkinchi qismi "v" bandi bilan 10 ta, JKning 209-moddasi birinchi qismi bilan 2.341 ta, JKning 227-moddasi birinchi qismi bilan 1.549 ta, JKning 228<sup>1</sup>-moddasi birinchi qismi bilan 1 ta, JKning 2301-moddasi birinchi qismi bilan

<sup>1</sup> M.H.Rustambayev. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. I tom. Jinoyat haqida ta'limot: darslik. 2-nashr (to'ldirilgan va qayta ishlangan) – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – B. 137.

<sup>2</sup> Yepixin.A.Yu. Kvalifikatsiya prestupleniy: uchebnoye posobiye. – Сыктывкарский госуниверситет, 2005. – S.6., Teoreticheskiye osnovy kvalifikatsii prestupleniy: uchebnoye posobiye. Plotnikov A.I. Orenburg: Izd-vo OI MGYUA, 2001. – S.8, Irkaxodjaye A.K., Xolikulov U.Sh. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning ilmiy asoslari: o'quv qo'llanma. – T.:TDYUI nashriyoti, 2007. – B 4

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

22 ta, JKning 237-moddasi ikkinchi qismi “b” bandi bilan 98 ta jinoyat ishi ro‘yxatga olingan<sup>3</sup>.

G‘arazgo‘ylik–bu shaxsni jinoyat sodir etishiga undaydigan, o‘zi va boshqa shaxslar uchun turli xil moddiy foydani qo‘lga kiritishga qaratilgan qilmish (pul, buyum, mol-mulk, uy-joy huquqi) yoki moddiy xarajatlardan qutulish maqsadida (qarz, aliment to‘lamaslik) sodir etilgan qilmish demakdir<sup>4</sup>.

G‘arazli va past niyatli jinoyatlarda, jinoyatchi tomonidan amalga oshirilgan harakatning maqsadi va niyatiga bog‘liqdir. G‘arazli jinoyat, jinoyatchi tomonidan qasd bilan bajarilgan jinoyatdir. Bu yerda jinoyatchi harakatini boshqa shaxsga zarar berish, malum bir maqsadni amalga oshirish yoki qonunni buzish maqsadida bajaradi. Past niyatli jinoyat esa, g‘arazdan farqli o‘laroq jinoyatchi tomonidan moddiy maqsadni ko‘zlamasdan, jabrlanuvchini kamsitish, unga ruhiy azob berish orqali bajarilgan jinoyatdir. Jinoyatchi harakatini bajarish uchun aslida moddiy zarar keltirmasdan jinoyat sodir etadi. Bu turdagi jinoyatlar odatda qasdli jinoyatlardan past darajada hisoblanadi va jazolari og‘irroq bo‘ladi.

Jinoyat kodeksining 8-bo‘limi, ya’ni “Atamalarining huquqiy ma’nosi” bobida “G‘arazgo‘ylik niyatlari – sodir qilingan jinoyatdan moddiy yoki boshqacha mulkiy yo‘sindagi foyda olish yoxud moddiy xarajatlardan qutulishga intilishda ifodalangan niyat” deb ta’rif beriladi. Mazkur tushunchadan g‘araz bilan tamagirlikning bir-biriga o‘xshash tushunchalar ekanligini bilishimiz mumkin. Negaki, tamagirlikda ham moddiy manfaatga erishish ko‘zlanadi. U.A.Zakirova o‘z dissertatsiyasida g‘arazgo‘ylik va tamagirlik atamalarini Jinoyat kodeksidan chiqarib, yagona atama sifatida “g‘arazli atama”<sup>5</sup> kiritilishini taklif qiladi. Bunga asos sifatida mazkur ikki atamaning bir xil ma’no anglatishini hamda “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning Yagona uslubiyotining 7-bandi<sup>6</sup>ga muvofiq tushunchaning yoki atamaning ta’rifi uning mazmunini to‘liq ochib berishi, tushunchani yoki atamani aynan shu tushunchaning o‘zi va atama orqali, shuningdek, o‘zi

<sup>3</sup> <https://www.Stat.uz>

<sup>4</sup> <https://www.fayllar.org>

<sup>5</sup> U.A.Zakirova. Jinoyat motiviga ko‘ra qilmishni kvalifikatsiya qilishning nazariy va amaliy muammolari. Ilmiy daraja uchun diss...: T-2023. B 156.

<sup>6</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 20.04.2021. 03/21/682/0354-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 03.03.2022. 03/22/756/0180-son; 04.08.2022. 03/22/787/0708-son. 27.10.2022.03/22/796/0966-son

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

ta'riflanishi lozim bo'lgan boshqa tushuncha va atamalar orqali ta'riflashga yo'l qo'yilmaydigan normani keltiradi.

Shuningdek, jinoyatning g'arazli yoki past niyatli ekanligiga qarab, uning qanday ko'rsatilishi va qanday jazolashga ega bo'lishi ham o'zgaradi. Jinoyatning g'arazli yoki past niyatli bo'lishi, jazolar va qonun hukmiyatiga ta'sir qiladi.

Har bir jinoyatning g'arazli niyati turlicha namoyon bo'ladi. Odatda amalda u juda sodda tarzda o'rnatiladi, ammo uning mavjudligi yoki yo'qligini aniqlashni qiyinlashtiradigan vaziyatlar yuzaga keladi. Albatta, g'arazli niyat ko'pchilik jinoyatlarni sodir etishga turtki bo'lishi mumkin, agar u jinoyatning asosiy yoki malakaviy belgisi sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, u kvalifikatsiya paytida hisobga olinadi.

G'arazli yoki past niyatlarda sodir etiladigan jinoyatlar ko'p hollarda o'zgaralar mulkini olib qo'yish yoki unga egalik qilish bilan bog'liq holatlarda sodir etiladi. Shu nuqatayi nazardan Jinoyat kodeksida bir nechta moddalarda g'arazli niyatda jinoyat sodir etilishi keltiriladi.

G'arazli niyatlarda (JK 1411-m. 2-q. "b"; g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda (JK 125-m. 2-q. "b" b; 137-m. 2-q. "b" b; 139-m. 3-q. "g" b; 227-m.1-q.); g'arazli yoki boshqa(cha) past niyatlar (JK 56.; 131-m. 1-q; 133-m. 2-q. "a" b; 1412-m. 2-q. "v"; 202-m.; 2301-m. 1-q.); g'arazgo'ylik bilan (178-m. 2-q. "a" b.); g'arazgo'ylik yoki boshqa manfaatlarni ko'zlab (JK 209-m. 1-q.); g'arazgo'ylik yoki boshqa shaxsiy manfaatlarni ko'zlab (JK 2281-m.); g'arazgo'ylik niyatlarida (237-m. 2-q. "b" b.) qo'llanilgan.

O'zganing mulkini g'arazli niyatlarda egallash asosan talon-taroj qilishda sodir etilishini keltirib o'tdik. Bu borada yuridik soha vakillarining fikrlarini keltiramiz. M.H.Rustambayevning fikriga ko'ra talon-taroj qilish o'zgaralar mulkini o'z foydasi, boshqa shaxslar foydasiga qonunga xilof tarzda va bepul o'ziga qaratib olishdir<sup>7</sup>. Q.Abdurasulova jinoyat sodir etish vaqtida g'araz ham tamagirlik niyati kabi ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish asosida, moddiy foyda olish istagida yotadi. Tamagirlik maqsadi firibgarlikning zaruriy belgisi hisoblanadi deb ta'kidlaydi<sup>8</sup>

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida "past niyatlar" atamasi ham qo'llanilgan va past niyatlar tushunchasi mazkur kodeksda nazarda tutilgan bir qancha jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda zaruriy belgi sifatida belgilanadi.

<sup>7</sup> Qobulov R. Mulzni talon-taroj qilish nima? / Hayot va qonun. – Toshkent, 1996. – № 10-11.–B.53.

<sup>8</sup> Abdurasulova Q.R. Firibgarlikning jinoyat huquqiy muammolari. Yurid.fan.nomzodi...diss.– Toshkent, 1996. – V.66-67.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

G'arazli niyatlar moddiy shakldagi manfaatni ko'zlab sodir etiladigan bo'lsa, ya'ni o'zga shaxsga tegishli bo'lgan mablag'ni egllash kabi past niyat esa nomoddiylikni ko'zlaydi. Shu bilan birga past niyatda jinoyat sodir etish asosan kimdandir qasd yoki o'ch olish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda bir insonning ikkinchi insonda husumati bo'ladi. Bir shaxs ikkinchi shaxsga tegishli bo'lgan oilaviy sirlarini jamiyat oldida past niyatlarda undan o'ch olish maqsadida tarqatadi. Bu holatda tarqatgan shaxs tomonidan ko'zlangan maqsad uning odamlar oldida sharmanda bo'lishi, yaqinlari orasida bosh ko'taraolmay yurishini xohlashdir.

M.Sh.Najimov g'arazgo'ylik yoki past niyatlarga o'ch yoki qasd olishni kiritish maqsadga muvofiq emas<sup>9</sup>—deya fikr bildiradi. Fikr yuritishimizcha o'ch yoki qasd olish g'arazgo'ylik va past niyatlarda sodir etiladi. Biroq g'araz, xudbinlik, hasad motivlarini ham qo'shishimiz o'rinli bo'ladi. Sababi bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsni ko'ra olmaslik holatlari, uning muvaffaqiyatiga hasad qilish. Bu holatda jinoyatni sodir etayotgan shaxs moddiy manfaatni ko'zlamasdan, o'zga insonni rivojlanishiga hasad qilib, unga zarar yetkazadi.

Aniqroq aytadigan bo'lsak, A. ismli shaxs o'zi bilan bir mahallada yonmayon yashovchi B. ismi qo'shnisining tadbirkorlik bilan bilan shug'ullanib, o'z mablag'larini ko'paytirayotganidan hamda mahalladagi qolgan qo'shnilari orasida hurmati oshib borayotganligiga hasad qilib, unga tegishli bo'lgan mulklarga zarar yetkazishni boshlaydi. Bu holatda u hech qanday moddiy mablag' ko'zlamasdan, qo'shnisini zarar ko'rishini xohlaydi.

Past niyatlar atamasiga yuridik darslik va ilmiy tadqiqot ishlaridan boshqa manbalarda ta'rif berilmaydi. Shuningdek, postsovet mamlakatlarining ko'pida past niyat atamasi qo'llanilgan bo'lib, qilmishning zaruriy belgisi sifatida qo'llaniladi.

Amaliyotda asosan past niyatlardagi jinoyatlarning kvalifikatsiyasi borasidagi muammolar yetarlicha ekanligini ko'rishimiz mumkin. Raqamlar bilan quyidagilar ketiriladi, kodeksning 125-moddasi 2-qismi "b" bandi bilan respublika kesimida 2021-yilda Namangan viloyatida 1 ta, 2020-yilda Farg'ona viloyatida 1 ta, 2019-yilda Buxoro viloyatida 1 ta jinoyat ishi ro'yxatga olingan<sup>10</sup>. Mazkur holatlarda past niyatlar mavjud bo'lmaganligi sababli qayta malakalangan.

<sup>9</sup> Нажимов М. (2022). Вопросы ответственности за преступление разглашения тайны усыновления. *Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке*, (1), 248–250. <https://doi.org/10.47689/innovations-in-edu-vol-iss1-pp248-250>

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy sudinig 2019–2021 yillarda JK ayrim moddalari bilan ko'rilgan jinoyat ishlari soni yuzasidan hududlar kesimidagi statistik ma'lumotnoma. 25.02.2022 yil. 07/14-1680-82-son 3-qt.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 11.79/2024**

**Том 2, Выпуск 1, 31 Января**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // 01.05.2023 – <https://lex.uz/docs/-6445145>;
2. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan O‘RQ-2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // <https://lex.uz/docs/-111453>;
3. U.A.Zakirova. Jinoyat motiviga ko‘ra qilmishni kvalifikatsiya qilishning nazariy va amaliy muammolari. Ilmiy daraja uchun diss: T-2023. B 156;
4. M.H.Rustambayev. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. I tom. Jinoyat haqida ta’limot: darslik. 2-nashr (to‘ldirilgan va qayta ishlangan) – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.;
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2019–2021 yillarda JK ayrim moddalari bilan ko‘rilgan jinoyat ishlari soni yuzasidan hududlar kesimidagi statistik ma’lumotnoma. 25.02.2022 yil.